

Paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga daromad solig'ini qaytarish bo'yicha QO'LLANMA

Paxta yoki g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga ularning ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan JSHODSni bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga rioya qilinganda qaytarib beriladi:

- har bir gektar yer uchun oyiga kamida bir nafar ishchining band bo'lishi;
- har bir nafar ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromad mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda belgilanganda;
- fermer xo'jaligi o'tgan yil yakuni bo'yicha Soliq kodeksining 57-moddasi talablariga javob berganda.

PQ-69-son 23.02.2023

Paxta va (yoki) g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari ishchilariga to'langan JShODSni qaytarib olishi uchun:

1. my3.soliq.uz portalida shaxsiy kabinetdan **“Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to'langan daromad solig'i summasini Davlat budjetidan to'liq qaytarib berish bo'yicha elektron arizalarni ko'rib chiqish”** sahifasiga o'tiladi;

The screenshot shows the user interface of the my3.soliq.uz portal. At the top, there is a navigation bar with the logo 'Elektron soliq xizmatlari' and the text 'Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to'langan daromad solig'i summasini Davlat budjetidan to'liq qaytarib berish bo'yicha elektron arizalarni ko'rib chiqish'. Below the navigation bar, there is a main menu with the following items: 'Asosiy', 'Soliqlarni to'lash', 'Xizmatlar' (highlighted with a red box), and 'Solihtirma dalolatnomalar'. The main content area is titled 'Yuridik shaxslar uchun xizmatlar' and contains a list of services. The service 'Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to'langan daromad solig'i summasini Davlat budjetidan to'liq qaytarib berish bo'yicha elektron arizalarni ko'rib chiqish' is highlighted with a red box. Other services include: 'Normativ-huquqiy xujjatlarda soliq ma'murchiligi doirasida ko'zda tutilgan xabarnomalarni yuridik shaxslar tomonidan soliq organlariga yuborish', 'Yuridik shaxslarning onlayn nazorat kassa texnikasi ma'lumotlari', 'Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan summadagi soliq rejimiga o'tish', 'Yuridik shaxslar uchun QQS summasiga tuzatish kiritish', and 'Yuridik shaxslarning soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha murojaat'.

2. Ushbu bo‘limdan **“Paxta va yoki g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun”** bo‘limi tanlanadi;

Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish

Issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarni ishga olgan ish beruvchilar uchun

Paxta va yoki g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun

[< Orqaga](#)

★ ★ ★ ★ ★ 0 ta baho

Foydalanish statistikasi: 0



[Barcha sharhlar](#)

[Xizmatni baholang, sharh yozing](#)

3. Ochilgan ariza shaklida arizachi to‘g‘risida ma‘lumotlar (*tashkilot nomi, STIR, manzil*) avtomatik shakllanadi;

Paxta va yoki g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari uchun

Asosiy - Barcha xizmatlar - JSHODS summasini qaytarish - Paxta va (yoki) g‘alla...

Daromad solig‘i summasini qaytarish

Yuborilgan arizalar

Yordam

Xodimlar uchun to‘langan daromad soliq summasi Davlat byudjetidan to‘liq qaytarib berish to‘g‘risidagi ish beruvchining arizasi

Arizachi tugrisida ma‘lumot

Tashkilot nomi:

MARD FERMER XO‘JALIGI

Tashkilot STIRi:

Manzili:

Sirdaryo

Faoliyat turi:

4. Tegishli qatorlarga hisobot davri (*yil, oy*) kiritilgandan so‘ng xodimlar haqidagi ma’lumotlar (*F.I.Sh, JShShIR va qaytariladigan JShODS summasi*) avtomatik shakllanadi.

4.1 Arizada **bank rekvizitlari** (*bank nomi, MFO, hisobraqam*) hamda egallab turgan yer maydoni ham avtomatik aks etadi. **“Ariza shakllantirish”** tugmasi orqali jarayon yakunlanadi.

Xodimlar ro'yxatini shakllantirish

Yil: Oy: dan gacha

Mexnat faoliyatini amalga oshirayotgan (ishlab kelayotgan) xodimlar ro'yxati (arizaga ilova)

T/r	F.I.Sh.	JShShIR/STIR	Umumiy qaytariladigan JShODS summasi
No data			

Xodimlar uchun to'langan daromad soliq summasi Davlat byudjetidan to'liq qaytarib berish to'g'risidagi ish beruvchining arizasi

Yer maydoni:	14.87 ar
Qaytariladigan daromad soliq summasi:	UZS 0.00

Ish beruvchining bank rekvizitlari

Bank nomi:	GULISTON
Bank MFOsi:	
Bank hisob raqami:	20

Ariza shakllantirish

5. **“Yuborilgan arizalar”** bo‘limidan ariza (*raqami, sanasi, bajarish muddati, jarayoni, soliq organi va bajaruvchi*) haqidagi ma’lumotlarni bilib olish mumkin.

Daromad solig'i summasini qaytarish **Yuborilgan arizalar** Yordam

Ariza, murojaat raqami.

No	Ariza raqami	Ariza sanasi	Ariza yo'nalishi	Ariza summasi	Bajarish muddati	Bajarish jarayoni	Soliq xizmati organi	Bajaruvchining F.I.SH, xizmati va telefoni	Hujjatlar
No data									

Talablarga javob bermagan fermerlar uchun ariza yuborish tizim tomonidan avtomatik cheklanadi.

Yuborilgan arizalar bo‘yicha JShODS summasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda qaytariladi.

Soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish departamenti